

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

**DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILAR RUHIYATIGA IJOBIY TA'SIR KO'RSATISHGA DOIR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH MODELI VA TEXNOLOGIYASI**

*Abdullayev Oybek Qurbanovich.*  
*Qo'qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi.*  
[\*e-mail:oybekabdulla2981@gmail.com\*](mailto:oybekabdulla2981@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarida o'quvchilar ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga doir bilimlarni oshirish yo'llari, model tushunchasi, differensial yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida o'quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga doir bilimlarini rivojlantirishning konseptual modelini ishlab chiqishda qo'yiladigan umumiy talablar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Diversifikatsiya, izchillik, sub'ektivlik, integrallash, modellashtirish, jismoniy tarbiya, ruhiyat, ijobiy ta'sir, pedagogik, psixologik, falsafiy bilimlar, ruhiy, ma'naviy, emotsional anglash, tushunish, yondashuv, ta'lim, jismoniy tayyorgarlik, ruhiy barqarorlik, shakllantirish, takomillashtirish.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida jismoniy ta'limga doir kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bilan birga ularda o'quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, irodasini mustahkamlashga, ruhiy barqarorligini shakllantirishga doir bilimlarini rivojlantirish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Chunki o'quvchilarning ruhiyatiga to'g'ri ta'sir ko'rsatish, ularning ilm olishga, jismoniy va ma'naviy barkamollikka erishishga doir irodasini mustahkamlash dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun esa differensial yondashuvdan foydalanish va shu asosda ta'lim modeli va texnologiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Differensial yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida o'quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga doir bilimlarini rivojlantirishda modellashtirish metodidan foydalanamiz. Model tushunchasini mashhur nemis faylasufi G.Leybnis birinchi bor ishlatgan va uni atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarning qulay shakli, muayyan amaliy maqsadlar uchun qurilgan ob'ektning bir xil axborot ekvivalenti deb hisobladi. Bu talqin bugungi kunda ilm-fan va texnikaning ko'plab sohalarida qo'llanilmoqda. Chet elda mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyati haqida aniq va etarli tasavvurga ega bo'lish va unga mos ta'lim olish uchun samarali

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

texnologiyalarni ishlab chiqish uchun ishlataladigan turli xil modellarda ko‘pgina tadqiqotlar olib borilgan.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida o‘quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga doir bilimlarini rivojlantirish tizimiga nisbatan tizimli yondashuv, bizning nazarimizda, ushbu tizimning turli jihatlari haqida o‘ziga xos ilmiy-nazariy bilimlarni qurishdir, buning uchun:

- bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash metodik tiziminining asosiy elementlarini aniqlash;
- tizim tuzilmasini ushbu elementlar va uning turli darajalari o‘rtasidagi barqaror tizim hosil qiluvchi ierarxik munosabatlarning birligi sifatida aniqlash;
- tizimning shaxsiy darajalari va elementlarining funksiyalarini aniqlash ishlari muhimdir.

2019-2023 yillar mo‘ljallangan sportni rivojlantirish konsepsiyasida «Sport - turmush tarzi» ostida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni ommaviylashtirish kompaniyasini tashkil etish va ijtimoiy tarmoqlarda ilgari siljитish, SPORTS.UZ axborot portalini yaratish vazifalari ham belgilab olingan edi.

Keyinroq Jismoniy tarbiya Dasturi qayta tahrir qilindi va o‘zgartirildi. Unda o‘quvchi-yoshlarni “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus talablariga ham tayyorlash va jismoniy rivojlantirish shartlari kiritildi. Bu orqali yoshlarni mehnat, kasb-hunar va mudofaa ishlariga tayyorlash vazifalari yuklatilgan edi. Bu jarayonni davom ettirgan holda oliy ta’lim muassasasi talabalarini ham kasbga yo‘naltirish, «ruhiy va ma’naviy irodasini sport orqali chiniqtirish», jismoniy tayyorgarligini o‘stirishga doir pedagogik amaliyot ishlab chiqildi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida o‘quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga doir bilimlarini rivojlantirish metodik tizimi bir butunlikni tashkil etadi, uning elementlari bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi, bir-birini to‘ldiradi va yagona maqsad bilan birlashadi.

Differensial yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida o‘quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga doir bilimlarini rivojlantirishning konseptual modelini ishlab chiqishda modellarga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilar:

- to‘liqlik, etarlilik va tadrijiylik kabi sifatlarga ega bo‘lish; jismoniy tarbiya ob’ekti, hodisa, jarayonni qayta ishlab chiqish uchun keng ko‘lamdagi o‘zgarishlar, qo‘shimchalar imkoniyatini ta’minlash;
- mavjud imkoniyatlardan foydalanib amalga oshirishga e’tibor qaratish, ya’ni jismoniy ta’limning ma’lum darajasida faoliyat olib borish;

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

- tadqiqot vazifasi bo'yicha jismoniy ta'lim ob'ekti haqida yangi foydali ma'lumotlar berish;
- o'z faoliyatini o'rganilayotgan jismoniy tarbiya ob'ekti, hodisa va jarayonga muvofiqligi to'liqligini tekshirish.

Shunday qilib, tadqiqotchi olimlar V. S. Lazarev va M. M. Potashnikda "ta'lim maydoni" tushunchasi quyidagi asosiy xususiyatlar orqali aniqlanadi:

- sub'ektiv faoliyat (o'quv faoliyati sub'ektlari, ularning turlari, ko'pligi, xilma-xilligi, bog'lanish va munosabatlar xarakteri);
- qadriyatli (ta'lim talablari, qadriyatlar va yo'nalishlar, maqsadlar, mintaqaviy, shahar, mahalliy va sublokal darajalarda ta'limni pastga qarab farqlash va diversifikatsiya qilish yo'nalishlari dars va pedagogik tadbir maydoniga qadar);
- mazmuni (konseptual, jumladan, ta'lim mazmunini tashkil etish modellari - sub'ekt-axborot, faoliyat-texnologik, shaxsga yo'naltirilgan, ijtimoiy-madaniy; predmet proeksiyalari-ta'lim muhiti, ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni);
- tashkiliy-boshqaruv (ta'lim siyosati, uning maqsad va vositalari orqali ochib berilganligi, ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari - ta'lim tizimi, ta'lim loyihasi, ta'lim majmuasi, ta'lim hududi, idoralararo, sohani boshqarish usullari).

Ta'limda ko'p funksiyali makon deganda maxsus tashkil etilgan pedagogik muhit, inson shaxsini shakllantirish uchun pedagogik omillar va shart-sharoitlardan tuzilgan tizim tushuniladi.

Jismoniy ta'limning ko'p funksiyali maydoni quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- izchillik - ob'ektning yaxlitligini va uni ta'minlovchi mexanizmlarni ochib berishga, murakkab ob'ektning xilma-xil munosabatlarini aniqlashga va ularni yagona namunaga keltirishga qaratilgan;
- yaxlitlik - ob'ektning ichki birligini, uning nisbiy avtonomligini, atrof-muhitdan mustaqilligini aks ettiradi;
- sub'ektivlik - talabani maqsadlarni belgilash va rostlash, motivlardan xabardor bo'lish, harakatlarni mustaqil amalga oshirish va rejaga muvofiqligini baholash, hayot rejalarini tuzish qobiliyati nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi;
- integrallash - tartibsiz hodisalar, qismlar, elementlarning bir butun (tartibli va strukturali) integrallanishini ta'minlaydi.

Diversifikatsiya - ta'limda xilma-xillik, ko'rsatiladigan xizmat turlarini kengaytirish va yangi faoliyat turlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu tamoyil ko'proq o'ziga xos tamoyillari majmuini o'z ichiga oladi: sifatli ta'lim, shaxsiy yo'naltirilganlik, tanlov erkinligi

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Jismoniy ta’limning innovatsion metodikasi asosida o‘quvchilarning ruhiyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatish, ularning jismoniy irodasi va matonatini mustahkamlashda tarixiy qadriyatlar urf-odat, an’analarini jonlantirish, ular asosida shakllangan o‘yinlar, musobaqalar va xalq milliy o‘yinlarini jonlantirish, tiklash va hayotga olib kirish bilan bog‘langan holda olib borilishi ham differensial yondashuvning asosidir. Chunki, o‘quvchilarning jismoniy imkoniyati, sog‘lomligi va kamolotiga bolalikdan shakllangan o‘yinlar va jismoniy mashqlar poydevor vazifasini o‘taydi. O‘zbek xalqida milliy o‘yinlar, bayram sayillaridagi bellashuvlar asrlar davomida shakllangan va yoshlarni irodali, baquvvat va chidamli bo‘lib ulg‘ayishida muhim ahamiyatga egabo‘lgan. Milliy an’analar namoyishida xalq o‘yinlari va bellashuvlar orqali o‘quvchilarning ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish, ularning matonatini mustahkamlash va jismonan chiniqtirish traditsiyasini shakllantirishda ta’lim muassasalari va ularda o‘tkaziladigan sport musobaqalari va jismoniy tarbiya bilan bog‘liq tadbirlarning ahamiyati ham yuqori bo‘ladi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida o‘quvchilarning ruhiyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishga doir bilimlarini rivojlantirish metodik tizimining tarkibiy funksional blok diagrammasi o‘qituvchilik, professional gnostik, prognostik muvofiqlashtiruvchi tizimlashtiruvchi modullari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik shaklida paydo bo‘ladi, ularning har biri o‘z maqsadlarini amalga oshiradi. Uzluksiz ta’limda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash quyidagi funksiyalar orqali amalga oshiriladi: aksiologik, marketing, tashkiliy jarayoni, monitoring.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida o‘quvchilarning ruhiyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishga doir bilimlarini rivojlantirishda raqobatbardoshlik fazilatlarini shakllantiradigan kompleks hamda uzuksiz o‘qitish g‘oyasiga muvofiq, kasbiy rivojlanishning ko‘p funksiyali fazoviy modeli quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: jismoniy fazoviy, ta’limiy fazoviy va shaxsiy fazoviy.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasidagi asosiy tendensiya bo‘lajak mutaxassisning ijodiy salohiyatini ochib berish, o‘z maqsadini ro‘yobga chiqarish uchun shaxsiy mas’uliyatini mustahkamlash hamda aniq muammolarni hal etishdir. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining bilimlilik darajasini, dunyoqarashini o‘sirish bilan birga ularda vatanparvarlik, vatanga sodiqlik, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va avloddan avlodga o‘tkazish bilan bog‘liq milliy xalq o‘yinlari va bellashuvlar festivallarini tashkil qilish orqali bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish va milliy xalq o‘yinlari bo‘lgan kurash, ot o‘yinlari, dorbozlik, tosh ko‘tarish, arxon tortish, bilak kuchini sinash, harakatli o‘yinlarni

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

o‘rgatish, ularning tarixini, paydo bo‘lish asosi haqida ma’lumotlar berib borish ularda aqliy va jismoniy yuksaklikni shakllantiradi.

Bo‘lajak mutaxassis shaxsini to‘laqonli faol ijtimoiy rivojlantirish shartlaridan biri jamoaviy o‘z-o‘zini tashkil etishning turli shakllarini yaratishdir. Talabalarning o‘z-o‘zini boshqaruvini yangilash jarayoni ijtimoiy amaliy xarakterni berishga qaratilgan bo‘lib, bu talabalarning kasbiy va madaniy-axloqiy o‘z-o‘zini tashkil etish hamda kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlari va istiqbollariga ongli, mas’uliyatli munosabatda bo‘lish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Zamonaviy talaba o‘z-o‘zini boshqarishda quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan.

- ta’limiy, ilmiy, kasbiy va madaniy sohalarda ijodiy faoliyat va havaskorlik faoliyatini amalga oshirish;
- tegishli huquqiy bilimga va mas’uliyatga ega bo‘lish;
- ijtimoiy va huquqiy o‘z-o‘zini himoya qilish.

Talabaning o‘z-o‘zini boshqarishi - bu faol hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lgan zamonaviy mutaxassislarni tayyorlaydigan, o‘zini o‘zi etarli, ijodiy shaxsni shakllantirishga qaratilgan o‘quv-tarbiya ishlarining shakllaridan biridir.

Oliy ta’lim tizimida Abu Ali ibn Sino tomonidan ilgari surilgan insonga xos bo‘lgan ijobiy fazilatlarni talaba-yoshlarda ham shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bular:

1. Jasurlik – biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to‘xtatib turuvchi quvvat.
2. Aqlilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat.
3. Ziyaraklik – sezgi bergen narsalarining haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushuntirishga yordam beruvchi quvvat.

Differensial yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida o‘quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga doir bilimlarini rivojlantirish bo‘yicha modellashtirishni barcha bosqichlarda qo’llash (professional yo‘naltirilganlik, ta’lim, fan, kasb tanlash va sertifikatlash, konsalting xizmati va hokazo) hamda pedagogik faoliyatda o‘zgarishlar dinamikasi uning uzlusiz kasbiy rivojlanishining barcha bosqichlarida aks ettiriladi (kasbiy moslashish, kasbiy mahorat va kasbiy ijodkorlik).

Ta’limning uzlusizligi shaxsning hayotiy muvaffaqiyati, millat farovonligi va mamlakat raqobatbardoshligi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy hayotdagि

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

dinamik o‘zgarishlar va bilimlarning tez yangilanishi sharoitida uzlusiz ta’limning moslashuvchan va dinamik tizimini yaratish inson kapitalining o‘sishi, innovatsion rivojlanish va har qanday mamlakatning raqobatbardoshligi uchun muhimdir.

Bunday tizim uchta asosiy shartni ta’minlashi kerak:

- ta’limining turli darajadagi ta’lim standartlari va dasturlarining uzviyligi;

- ta’limni vaqtincha tugatish va qayta tiklash, uning shaklini o‘zgartirish, individual ta’lim traektoriyasini o‘zgartirish, malaka oshirish, qayta tayyorlash va boshqalar;

-pedagogik kasbiy tayyorgarlikni davom ettirish imkonini bermaydigan ta’lim dasturlari, ta’lim muassasalari, ta’lim yo‘nalishlari va turlarining yo‘qligi. Bu tizim davlat va jamoat xarakteriga ega bo‘lishi, uning sifati, samaradorligi va raqobatbardoshligining to‘g‘ri darajasini ta’minlab, turli xil va shakllarda ta’lim bilan shug‘ullanuvchi barcha mulkchilik shaklidagi muassasa va tashkilotlarni o‘z ichiga olishi lozim.

Xulosa qilganda, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘quvchilarida o‘quvchilarning ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga doir bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish orqali ta’slim sifati va jismoniy tarbiya samaradorligiga erishish mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning ruhiy-axloqiy muammolari asosida jismoniy ta’limda o‘zining imkoniyatlarini to‘liq ko‘rsata olmaslik muammosini bartaraf etadi. Shu bilan birga o‘quvchilarning irodasi, shijoati va ruhiy barqarorligi mustahkamlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent.: O‘zbekiston, 2020 yil 23 sentyabr. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 24 oktyabrdagi «O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida»gi PF-3154- sonli Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 10-11-son, 197-modda
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son «Ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishnin yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida »gi Qarori. // Xalq so‘zi. 2017 yil 28 iyul.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi PF-5106-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 27-son, 607-modda.

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

5. Tokhirzhonovich, Arabboev Kakhramon. "The effect of physical activity on the body of schoolchildren in physical education lessons." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.12 (2023): 112-115.
6. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN STUDENT ACTIVITY AND LIFESTYLE." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.
7. Араббоев, Қ. Т. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.
8. Muratova, Gulnara Rashitovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION FOR STUDENTS BASED ON THE POSSIBILITY OF AEROBICS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.
1. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "The importance of functional training in the athlete training system." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 261-264.
2. Toxirjonovich, Arabboyev Qaxramon, et al. "THE ROLE OF SPORT IN PEOPLE'S HEALTH." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
3. Arabboyev, Q. T. "Sportchilarni tayyorlashda funksional tayyorgarlikning ahamiyati: 10.53885/edinres. 2022.75. 29.012 QT Arabboyev." Научно-практическая конференция. 2022.
4. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "SPECIFIC FEATURES OF THE APPROACH TO STUDENTS IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS ON THE BASIS OF THE PRINCIPLE OF INDIVIDUALIZATION." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 269-273.
5. Араббоев, Қ. Т. "Особенности адаптации студентов высшей физкультурно-педагогической школы к учебной и спортивной деятельности." Педагогические науки 5 (2011): 128-131.
6. MURATOVA, GULIYA RIMOVNA, RUZEL MULLAKHMETOVICH KHABIBULLIN, and AYGUL URALOVNA BAKIROVA. "COORDINATION ABILITIES OF POWERLIFTERS." Будущее науки-2019. 2019.

**Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari**

7. Rashitovna, Muratova Gulnara. "Problems of Using the Technology of Integrated Modular Training of Students in Physical Education Classes at The University." Genius Repository 26 (2023): 104-106.
8. Муратова, Г. Р. "ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ УРОКА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." Science Promotion 4.1 (2023): 30-35.
9. Муратова, КГПИ Г. "АКТИВИЗАЦИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ ПУТЬЁМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОРЕВНОВАТЕЛЬНО-ИГРОВОГО МЕТОДА." Science Promotion 4.1 (2023): 24-29.
10. Муратова, Гулнара, and Вагаршак Данелян. "ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В СРЕДНИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ." Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2.22 (2023): 23-27.
11. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir, Gafurov Abduvohid Makhmudovich, and Yuldasheva Jamilakhan Mukhtorovna. "The role of gymnastics in the educational process." Open Access Repository 8.12 (2022): 5-8.
12. Mukhtorovna, Yuldasheva Jamilakhan. "EFFECTIVE WAYS OF MANAGING THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE FIELD OF SPORTS." Open Access Repository 8.12 (2022): 693-697.
13. УПРАЖНЕНИЯХ, САМОКОНТРОЛЬ В. ФИЗИШЕСКИХ. "JISMONIY YUKLAMALARDA O'ZINI-O'ZI NAZORAT." НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021 1: 722.
14. Умарова, Ф. А., З. А. Умарова, and А. А. Умаров. "Повышение эффективности обучения за счет использования электронного обучения в классе." Библиотека в пространстве современной культуры. 2020.
15. Умаров, АА-К. "СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПРЕДСТАРТОВОЙ МЫШЕЧНОЙ РАБОТЫ СПОРТСМЕНА КАК СПОСОБ ПОДГОТОВКИ К УЧЕБНО-ТРЕНИРОВОЧНЫМ ЗАНЯТИЯМ И СОРЕВНОВАНИЯМ." ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ В СИСТЕМЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ. 2021.
16. Artikovna, Abdurahmonova Malohatkhan. "USE OF INTERACTIVE METHODS AND THEIR EFFECTIVENESS IN TEACHING CHEMISTRY." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.2 (2023): 507-510.
17. Умаров, Абдусамат Абдумаликович. "Феноменологическое Поле Гендерной Идентичности Спортсменок." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.12 (2022): 15-18.